



**QASHQADARYO VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISH
2025- YIL YANVAR
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 1 834,8 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 74,6 % ni tashkil etdi.




2025- yilning yanvar oyida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush G'uzor tumani (17,4 %), Nishon tumani (16,1 %), Qarshi shahri (12,7 %) Qarshi tumani (6,7 %) hamda Kasbi tumani (6,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Shahrisabz shahrida (110,2 %), Ko'kdala tumanida (109,3 %) hamda Chiroqchi (109,2 %) tumanida kuzatildi.




yanvar oylarida yirik korxonalar bo'yicha
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)


Suyultirilgan gaz




Neft



Tabiiy gaz



Gaz kondensati




Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar	2025- yil yanvar	Farqi +/-
Suyultirilgan gaz, ming t.	11,1	11,6	0,5
Neft, ming t.	1,0	0,7	- 0,3
Tabiiy gaz, mln. kub.m	6,0	6,1	0,1
Gaz kondensati, ming t.	8,8	8,7	- 0,1

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2024- yilning yanvar oyida – 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 28,2 % (29,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,6 % (8,9 %), quyi texnologiyali 65,8 % (61,6 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 0,1 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 3,1 m.), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,02 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 85,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 27,0 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 110,2 %) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,2 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 128,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,8 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 122,5 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar oyida viloyatda 0,3 ming tonna dizel yoqilg'isi (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 18,1 %), 5,8 ming tonna kalava ip (98,5 %), 156,4 ming litr aroq mahsulotlari (109,3 %) hamda 1,3 ming tonna yumshoq bug'doy va sepelta uni (49,7 %) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar	2025- yil yanvar	Farqi +/-
Paxta linti, ming t.	0,2	0,4	0,2
Aroq, ming litr.	143,2	156,4	13,2
Kalava ip, ming t.	5,9	5,8	- 0,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	2,7	1,3	- 1,4
Paxta tolasi, ming t.	4,5	6,1	1,6

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora hamda rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,02 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 85,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 0,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xom-ashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,5 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 122,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 110,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 22,6 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 129,8 % ga va ishlab chiqarish hajmi 555,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,0 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 16,0 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 23,6 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,2 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 579,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,3 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 116,8 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 81,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 18,7 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 108,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 459,6 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 136,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 100,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 199,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar	2025- yil yanvar	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	727,1	733,1	6,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	158,3	315,0	156,7




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish, suv quvurlari va taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 118,9 % hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 96,8 % ga teng ekanligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar	2025- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	943,6	1 121,9	178,3
Suvga ishlov berish, suv quvurlari va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	12 050,2	11 669,5	- 380,7

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra